



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHIIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSIIYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Iloxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLIIYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
BARQAROR YASHIL INVESTITSIIYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA	101
Zilola Kazakova	
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURSLARI SAMARADORLIGINI KOBBI-DUGLAS MODELII YORDAMIDA BAHOLASH	113
Turayev Baxrom Ergashevich	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI	120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li	
SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)	127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi	
O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI	132
Shohujayeva Zebo Safoyevna	
Xolov Javlonbek Davronovich	
УЗБЕКИСТАН КАК АКАДЕМИЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	138
Эргашева Шахло Тургуновна	
БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ	146
Маннапова Раъно Абборовна	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIVAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI	154
Xojiyev Ma‘murjon Muxsinjon o‘g‘li	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI	163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	169
Yusupov Muxiddin Soatovich	
Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o‘g‘li	



KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Yusupov Muxiddin Soatovich
Oriental universiteti professori v.b., PhD

Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o'g'li
mustaqil tadqiqotchi

Abstract. This article examines the development of small business entities in Uzbekistan and the improvement of their economic efficiency. It analyzes the key economic indicators of small enterprises and microfirms in the Republic of Uzbekistan, the dynamics of changes in their fixed capital investments across economic sectors and regions, as well as the impact of the business environment and other factors on entrepreneurship development. Recommendations for improving the economic efficiency of small business entities are developed.

Keywords: private entrepreneurship, small business, microfirm, small enterprise, income, net revenue, expenses, production cost, profit, efficiency, credit, taxation, financial resources, subsidy, incentive.

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, ular tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar kesimidagi o'zgarish dinamikasi, shuningdek, biznes muhiti va boshqa omillarning tadbirkorlik rivojiga ta'siri tahlil qilingan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xususiy tadbirkorlik, kichik biznes, mikrofirma, kichik korxona, daromad, sof tushum, xarajatlar, tannarx, foyda, samaradorlik, kredit, soliq, moliyaviy resurslar, subsidiya, imtiyoz.

Аннотация. В статье исследованы вопросы развития субъектов малого предпринимательства в Узбекистане и повышения их экономической эффективности. Проанализированы основные экономические показатели малых предприятий и микрофирм Республики Узбекистан, динамика изменения осуществлённых ими инвестиций в основной капитал в разрезе отраслей экономики и регионов, а также влияние деловой среды и других факторов на развитие предпринимательства. Разработаны рекомендации по повышению экономической эффективности субъектов малого предпринимательства.

Ключевые слова: частное предпринимательство, малый бизнес, микрофирма, малое предприятие, доход, чистая выручка, расходы, себестоимость, прибыль, эффективность, кредит, налогообложение, финансовые ресурсы, субсидия, льгота.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xususiy tadbirkorlik va kichik biznesning ahamiyati tobora ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 20-avgustda mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvda ta'kidlaganidek: "Bugun bimalol ayta olamizki, mamlakatimizda kichik va o'rta biznes «islohotlar katalizatori»ga aylandi" [1].

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil yakunlari bo'yicha kichik tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi (YalM) ulushi 52,2 foizni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 91,9 foizni, chakana savdo aylanmasida 83,0 foizni, qurilish ishlarida 73,6 foizni, xizmatlar hajmida 56,7 foizni, sanoatda 34,9 foizni, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda 61,4 foizni, eksportda 36,6 foizni va importda 53,6 foizni tashkil etgan [2].



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan 2026–2030-yillarga mo'ljallangan yangilangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi tasdiqlangan. Unda iqtisodiyotda xususiy sektorning rolini oshirish, tadbirkorlarning erkin faoliyat yuritishi uchun yanada qulay sharoitlar yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 60 foizga yetkazish hamda faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta biznes subyektlari orasida uch va undan ortiq yil faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar ulushini 60 foizgacha oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan [3].

Mamlakatimizda kichik tadbirkorlikni keng ko'lamda rivojlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish uchun tadbirkorlik faoliyatiga xizmat qiluvchi biznes muhitini takomillashtirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, bozor ochiqligi va erkin raqobat muhitini mustahkamlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzuning dolzarbligidan kelib chiqib, maqolada kichik tadbirkorlikni rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari bo'yicha bir qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar nazariy tadqiqotlar olib borganlar. I. Salamov, T. Qudratov va I. Qudratovalarning ta'kidlashicha, "tadbirkorlik va biznesni iqtisodiy jihatdan tadqiq etish uzoq tarixga borib taqaladi. Xususan, olimlarning e'tirof etishicha, XVIII–XIX asrlarda nemis olimlari I. Tyunen va G. Mangoldt, amerikalik iqtisodchi F. Nayt, shuningdek, R. Kantilon, F. Kene, A. Smit, J. Sey va Y. Shumpeter kabi buyuk olimlar tadbirkorlikning iqtisodiy-ijtimoiy tabiati va xususiyatlarini tadqiq etganlar" [4].

Amerikalik iqtisodchilar Kempbell R. Makkonnell, Stenli L. Bryu va M. Flinnning ta'kidlashicha, zamonaviy bozor iqtisodiyoti, asosan, xususiy mulkchilik, tadbirkorlik va tanlov erkinligi hamda tadbirkorlarning shaxsiy manfaatlari ustuvorligiga tayanadi [5].

V.Yu. Burovning fikricha, "Yevropaning rivojlangan mamlakatlari tajribasi kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda. Yevropa Ittifoqiga a'zo Germaniya, Italiya, Daniya va boshqa rivojlangan davlatlarda kichik tadbirkorlikning yalpi milliy mahsulotdagi ulushi 65–70 foiz va undan ham yuqori ko'rsatkichni tashkil etmoqda. Natijada, ushbu mamlakatlarda kichik tadbirkorlik nafaqat bandlik masalasini hal etish va aholi daromadlarining o'sishiga xizmat qilmoqda, balki makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida ham namoyon bo'lmoqda" [6].

D. Qosimovanning fikriga ko'ra, "tadbirkorlik — bu tashabbuskorlik, mas'uliyat va innovatsion tadbirkorlik g'oyasiga asoslangan inson faoliyatining o'ziga xos turi. Tadbirkorlik — bu shaxsiy foyda va jamoat manfaatlari uyg'unligi asosida foyda olishni nazarda tutuvchi faoliyatdir" [7].

Keltirilgan ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, tadbirkorlik faoliyati zamonaviy bozor iqtisodiyotining asosiy elementlaridan biri va uni harakatga keltiruvchi muhim kuchlardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va uni rivojlantirish masalalari bo'yicha tadqiqot olib borgan xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, shuningdek, mazkur sohada mamlakatimizda amal qilayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslarini tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida abstrakt va analitik mushohada, normativ va pozitiv tahlil, analiz va sintez, qiyosiy hamda omilli tahlil usullaridan foydalanildi.

Maqolani tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarining ishlanmalari va boshqa tegishli manbalardan foydalanildi. Ma'lumotlarni tahlil qilish, tizimlashtirish va maqola matnini tayyorlash jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan cheklangan darajada, ya'ni 10 foizgacha foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALARI

Bugungi kunda mamlakatimizda kichik tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi (YalM) ulushi 52,2 foizni tashkil etmoqda (1-jadval).



1-jadval

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida kichik tadbirkorlikning ulushi, jami ko'rsatkichga nisbatan foizda

Iqtisodiyot tarmoqlari	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil	2025-y. 2021-y.ga nis., f. p.
Yalpi ichki mahsulotda	56,3	54,3	53,8	53,5	52,2	– 4,1
Sanoat	27,4	26,0	27,0	31,9	34,9	+ 7,5
Qurilish	72,5	71,5	78,5	75,4	73,6	+ 1,1
Bandik	74,5	73,9	74,0	73,9	74,9	+ 0,4
Eksport	20,0	31,2	27,9	34,1	36,6	+ 16,6
Import	45,2	49,4	50,5	49,8	53,6	+ 8,4
Chakana savdo	86,2	84,7	83,4	84,2	83,0	– 3,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	96,0	94,8	94,6	95,0	91,9	– 4,1
Xizmatlar	51,7	49,4	56,8	56,7	56,7	+ 5,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan — www.stat.uz.

Yuqorida keltirilgan 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2021–2025-yillar davomida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi sanoat tarmog'ida 27,9 foizdan 34,9 foizgacha, ya'ni 7,0 foiz punktga; qurilishda 72,5 foizdan 73,6 foizgacha, ya'ni 1,1 foiz punktga; bandlikda 74,5 foizdan 74,9 foizgacha, ya'ni 0,4 foiz punktga; eksportda 20,0 foizdan 36,6 foizgacha, ya'ni 16,6 foiz punktga; importda 45,2 foizdan 53,6 foizgacha, ya'ni 8,4 foiz punktga; xizmatlar sohasida esa 51,7 foizdan 56,7 foizgacha, ya'ni 5,0 foiz punktga oshgan.

Shu bilan birga, mazkur ko'rsatkich qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 96,0 foizdan 91,9 foizgacha, ya'ni 4,1 foiz punktga, chakana savdoda esa 86,2 foizdan 83,0 foizgacha, ya'ni 3,2 foiz punktga kamaygan.

O'zbekiston Respublikasida 2021–2025-yillar davomida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining o'zgarish dinamikasi quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining o'zgarish dinamikasi (31-dekabr holatiga, ming birlikda)

Ko'rsatkichlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.	2025-y. 2021-y.ga nisb., %
Ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlari	488,9	556,0	614,9	651,8	595,7	121,8
Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari	462,8	523,6	417,1	358,1	403,8	87,2
Faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari	26,1	32,4	197,8	293,7	191,9	7,3 m.
Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining ro'yxatdan o'tgan-lariga nisbati, % da	94,7	94,2	67,8	54,9	67,8	–26,9 f.p.
Faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining ro'yxatdan o'tgan-lariga nisbati, % da	5,3	5,8	32,2	45,1	32,2	+26,9 f.p.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [8; 9; 10].

Yuqorida keltirilgan 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilingan 2021–2025-yillarda respublikada ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 21,8 foizga oshgan bo'lsa-da, shu davrda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 12,8 foizga kamaygan. Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining ro'yxatdan o'tgan subyektlar umumiy sonidagi ulushi 94,7 foizdan 67,8 foizgacha, ya'ni 26,9 foiz punktga kamaygan.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda respublikada faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni va ulushining o'sishi kuzatilgan. Xususan, ko'rib chiqilayotgan davrda ularning soni 26,1 ming birlikdan 191,9 ming



birlikkacha, ya'ni qariyb 7,4 baravarga oshgan. Faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining ro'yxatdan o'tgan subyektlar umumiy sonidagi ulushi esa 5,3 foizdan 32,2 foizgacha, ya'ni 26,9 foiz punktga oshgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, so'nggi yillarda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining ortishi quyidagi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

- majburiy elektron hisobvara-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari va mahsulotlarni raqamli markirovkalash tizimlarining joriy etilishi tovar aylanmasining shaffofligini oshirib, tadbirkorlik subyektlaridan yangi hisob va nazorat talablariga moslashishni taqozo etmoqda;

- qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash tizimiga o'tish mezonlari hamda xo'jalik operatsiyalari ustidan nazorat mexanizmlarining takomillashtirilishi biznes faoliyatini rasmiy va shaffof shaklda tashkil etishni rag'batlantirmoqda;

- faoliyat yuritmayotgan yuridik shaxslarni davlat reyestridan chiqarish muddatlari va mexanizmlarining optimallashtirilishi uzoq vaqt davomida faol bo'lmagan korxonalar to'g'risidagi ma'lumotlarni tartibga solish imkonini bermoqda;

- 2030-yilga qadar yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar norasmiy faoliyatni qonuniy tadbirkorlik shakliga o'tkazish va halol raqobat muhitini mustahkamlashga xizmat qilmoqda;

- yuridik shaxslar uchun gaz, elektr energiyasi va yoqilg'i narxlarini bosqichma-bosqich bozor tamoyillariga moslashtirish tadbirkorlik subyektlaridan energiya tejamonkor texnologiyalarni joriy etish, xarajatlarni maqbullashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni talab etmoqda;

- gaz, elektr energiyasi va suv ta'minoti tarmoqlariga ulanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, shuningdek, ekstremal ob-havo sharoitlarida ta'minot barqarorligini oshirish kichik biznes rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi;

- tijorat kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini maqbullashtirish, kredit olish tartib-taomillarini soddalashtirish va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kichik tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Raqobatli bozor sharoitida har qanday xo'jalik yuritish shaklining barqaror faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi uning iqtisodiy samaradorlik darajasiga bevosita bog'liq. Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy natijalari (amaldagi narxlarda, mlrd so'm)

Ko'rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushum	283 972,4	418 280,2	572 783,2	707 316,1	847 328,3
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi	233 212,4	349 330,4	493 248,6	596 705,5	709 706,1
Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda	50 760,0	68 949,8	79 534,6	110 610,6	137 622,2
Davr xarajatlari	30 729,4	43 977,8	59 068,0	74 060,0	101 608,8
Boshqa xarajatlari	17 273,4	16 188,1	32 834,1	36 421,6	44 077,5
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (+), (zarar (-))	15 963,2	23 070,0	21 842,0	27 275,1	27 937,0
Sof foyda (+), (zarar (-))	11 419,8	17 225,1	13 891,3	19 745,4	19 712,3
Sotish rentabelligi, %da	17,87	16,48	13,88	15,64	16,24
Sotilgan mahsulot tannarxiga nisbatan rentabellik darajasi, %da	4,89	4,93	2,81	3,3	2,78

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining "O'zbekiston Respublikasida kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari" nomli 2020–2024-yillarga oid press-revizlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan (<https://stat.uz/uz/default/press-revizlar/>).

Tahlil natijalariga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ni sotishdan olingan yalpi foydasi amaldagi narxlarda 50 760,0 mlrd so'mdan 137 622,2 mlrd so'mgacha, ya'ni 171,1 foizga oshgan. Foyda solig'i to'langunga qadar olingan foyda 15 963,2 mlrd so'mdan 27 937,0 mlrd so'mgacha yoki 75,0 foizga, yilning sof foydasi esa 11 419,8 mlrd so'mdan 19 712,3 mlrd so'mgacha yoki 72,6 foizga oshgan.



Mazkur ko'rsatkichlar rasmiy statistikada taqqoslama narxlarda emas, balki amaldagi narxlarda keltirilganligi sababli moliyaviy natijalarning real o'zgarish tendensiyasini baholashda har 100 so'mlik sotilgan mahsulotga to'g'ri keladigan yalpi foydani ifodalovchi sotish rentabelligi hamda har 100 so'mlik sotilgan mahsulot tannarxiga nisbatan sof foydani aks ettiruvchi mahsulot tannarxi rentabelligi ko'rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

2020–2024-yillar davomida respublika bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning mahsulot sotish rentabelligi 17,87 foizdan 16,24 foizgacha pasaygan bo'lib, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 13,88 foizni tashkil etgan. Sotilgan mahsulot tannarxiga nisbatan rentabellik darajasi esa 4,89 foizdan 2,78 foizgacha kamaygan. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning sotilgan mahsulot tannarxiga nisbatan rentabellik darajasi 2020–2024-yillarda 2,78–4,89 foiz oralig'ida shakllangan. Ushbu ko'rsatkichning pasayish tendensiyasi tadbirkorlik faoliyati rentabelligini oshirish uchun mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi (3-jadval).

Ta'kidlash joizki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning sof foydasi yoki zarari iqtisodiy faoliyat turlari, ya'ni tarmoqlar kesimida farqlanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning zarari 374,7 mlrd so'mdan 462,6 mlrd so'mgacha, ya'ni 23,4 foizga oshgan (4-jadval).

4-jadval

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning sof foydasi (zarari — “–”) miqdori (amaldagi narxlarda, mlrd so'mda)

	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2024 y. 2020 y.ga nis., %da
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	–374,7	–54,4	–277,2	–811,0	–462,6	123,4
Sanoat	3 152,6	4 729,6	459,0	1 034,8	860,1	27,3
Qurilish	1 372,3	1 787,6	1 031,4	2 098,5	497,2	36,2
Savdo	4 698,4	6 331,5	7 710,1	9 381,1	10 733,3	228,4
Tashish va saqlash	351,8	589,8	484,7	–888,7	136,8	38,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	–138,0	–141,9	138,1	469,8	335,2	473,2
Axborot va aloqa	604,2	904,0	1 945,2	4 409,2	3 793,7	627,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	103,2	267,5	232,2	302,9	285,0	276,2
Boshqa turdagi xizmatlar	1 649,9	2 811,5	2 167,9	3 748,8	3 533,6	214,2
JAMI	11 419,8	17 225,1	13 891,4	19 745,4	19 712,3	172,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining “O'zbekiston Respublikasida kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari” nomli 2020–2024-yillarga oid press-revizlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan (<https://stat.uz/uz/default/press-revizlar/>).

Shuningdek, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan kichik korxonalar va mikrofirmalarning sof foydasi sanoat tarmoqlarida 3 152,6 mlrd so'mdan 860,1 mlrd so'mgacha, ya'ni 72,7 foizga; qurilishda 1 372,3 mlrd so'mdan 497,2 mlrd so'mgacha yoki 63,8 foizga; tashish va saqlash sohasida esa 351,8 mlrd so'mdan 136,8 mlrd so'mgacha yoki 61,1 foizga kamaygan.

Shu bilan birga, savdo sohasida mazkur ko'rsatkich 4 698,4 mlrd so'mdan 10 733,3 mlrd so'mgacha, ya'ni 128,9 foizga; axborot va aloqa sohasida 604,2 mlrd so'mdan 3 793,7 mlrd so'mgacha yoki 527,9 foizga; sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 103,2 mlrd so'mdan 285,0 mlrd so'mgacha yoki 176,2 foizga oshgan. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida esa 2020-yildagi 138,0 mlrd so'mlik zarar 2024-yilga kelib 335,2 mlrd so'mlik sof foydaga aylangan. Natijada ushbu sohadagi moliyaviy natija 473,2 mlrd so'mga yaxshilangan.

Mazkur ma'lumotlar ishlab chiqarish tarmoqlari, jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, sanoat, qurilish hamda tashish va saqlash sohalarida kichik korxonalar va mikrofirmalarning moliyaviy samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Ayni paytda savdo, yashash va ovqatlanish, axborot va aloqa, sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy xizmatlar sohalarida foyda hajmining oshishi kuzatilgan. Bu esa kichik



tadbirkorlikni ishlab chiqarish va real sektor tarmoqlarida keng ko'lamda rivojlantirishga qaratilgan aniq va tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarda mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish zarur:

1. Infratuzilmani rivojlantirish bilan bog'liq yo'nalishlar:

– elektr energiyasi, tabiiy gaz va suv ta'minoti tarmoqlariga ulanish jarayonlarini yanada soddalashtirish, ta'minotning uzluksizligini mustahkamlash mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini barqaror tashkil etishga xizmat qiladi;

– tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki kengaytirish uchun yer uchastkalari hamda bino-inshootlardan foydalanish imkoniyatlarini, jumladan, ularni sotib olish va ijaraga olish mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega;

– uzoq va chekka hududlardagi avtomobil yo'llari sifatini oshirish, temir yo'l stansiyalari va aeroportlarga transport orqali bog'lanishni yaxshilash hamda yuk tashish xarajatlarini maqbullashtirish hududiy tadbirkorlik rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Moliyaviy va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish:

– tadbirkorlik uchun ajratiladigan imtiyozli kredit resurslari hajmini oshirish, tijorat kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini maqbullashtirish, garov ta'minoti mexanizmlarini yengillashtirish va kredit olish tartib-taomillarini soddalashtirish kichik biznesning kengayishiga xizmat qiladi;

– kichik tadbirkorlik subyektlari uchun davlat tomonidan ajratiladigan subsidiyalarning turlari, hajmi va qamrovini tadbirkorlarning real ehtiyojlaridan kelib chiqib kengaytirish biznesni boshlash va rivojlantirish imkoniyatlarini oshiradi;

– xomashyo xarid qilish va operatsion xarajatlarni qoplash uchun aylanma mablag'lardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash mahallalardagi kichik sexlar, xizmat ko'rsatish shoxobchalari va savdo do'konlarining barqaror faoliyatini ta'minlashga yordam beradi;

– soliq ma'muriyatchiligini yanada soddalashtirish, hisobot topshirish jarayonlarini raqamlashtirish va tadbirkorlar uchun tushunarli maslahat xizmatlarini kengaytirish biznes yuritish qulayligini oshiradi.

3. Ma'muriy-huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish:

– ayrim faoliyat turlari bo'yicha ruxsatnomalar va litsenziyalarni olish jarayonlarini yanada soddalashtirish hamda elektron xizmatlar qamrovini kengaytirish tadbirkorlarning vaqt va xarajatlarini kamaytiradi;

– mahalla aholisining biznesni rejalashtirish, marketing, moliyaviy boshqaruv va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshiradi;

– biznesni tartibga solish sohasidagi ma'muriy tartib-taomillarni optimallashtirish, tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va davlat organlari bilan hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish barqaror biznes muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

4. Bozor va raqobat imkoniyatlarini kengaytirish:

– mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini ichki va jahon bozorlariga olib chiqishida logistika xizmatlarini rivojlantirish, eksport hujjatlarini bojxonada rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish hamda marketing ko'magini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega;

– ayrim tarmoq va bozorlarda sog'lom raqobat muhitini yanada rivojlantirish, norasmiy iqtisodiy faoliyatni qisqartirish va qonuniy faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun teng sharoitlarni ta'minlash kichik biznesning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida mamlakatimizda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish va ichki biznes strategiyalarini takomillashtirish.

Kichik biznesni rivojlantirishda davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish bilan bir qatorda, tadbirkorlik subyektlarining ichki biznes strategiyalarini optimallashtirish muhim ahamiyatga ega.

2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda mahallalarning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy salohiyatidan samarali foydalanish:

– mahallalarning ixtisoslashuvi, aholining tajribasi va ko'nikmalariga mos keluvchi "drayver sohalar" hamda "o'sish nuqtalari"ni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish;

– mahallalarda bo'sh turgan bino-inshootlar, ishlab chiqarish maydonlari va boshqa obyektlarni aniqlab, ularni imtiyozli shartlar asosida tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish;

– aholi xonadonlarida hunarmandchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, kasanachilik, kashtachilik, kulolchilik va zargarlik kabi kichik tadbirkorlik turlarini rivojlantirish;



– aholi tomorqalarida kichik intensiv bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik, polizchilik, dukkakli va moyli ekinlar hamda kartoshka yetishtirish uchun imtiyozli kreditlar ajratishga ko'maklashish, shuningdek, kooperatsiya asosida baliqchilik, pillachilik, asalarichilik va issiqxona xo'jaliklarini tashkil etish;

– mahallalarda doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan ishsiz aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish bo'yicha treninglar hamda qisqa muddatli kurslar faoliyatini kuchaytirish;

– o'zini o'zi band qilgan va tashabbuskor fuqarolarning tadbirkorlikka qiziqishini aniqlash hamda ularning kichik biznes subyektiga aylanishiga ko'maklashish;

– kam daromadli oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish orqali ularning barqaror daromad manbalarini shakllantirishga ko'maklashish.

3. Yangi tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va mavjudlari faoliyatini kengaytirish:

– xonadonbay ro'yxat asosida mahalladagi haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni aniqlash, jumladan, aholi bandligi darajasi, oilalarning daromad manbalari, iqtisodiy ahvoli, daromadli mehnatga intilishi va ehtiyojlarini o'rganish;

– faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar orasidan "yetakchi tadbirkorlik subyektlari"ni aniqlash va ular bilan faoliyatni kengaytirish bo'yicha muntazam muloqot olib borish, shuningdek, aholi orasidagi ishsiz va tadbirkorlik qobiliyatiga ega shaxslarni "yetakchi tadbirkorlar"ga birlashtirish;

– mahallalarda oilaviy tadbirkorlik uchun imtiyozli kreditlar ajratish, tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan ishsiz fuqarolarga asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish, bino-inshootlarni ijaraga olish, issiqxonalar qurish, sug'orish tizimlarini tashkil etish, urug'lik va ko'chatlar sotib olish uchun subsidiyalar berish ko'lamini kengaytirish.

4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish:

– istiqbolli startap loyihalar, ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatini endi boshlayotgan shaxslar uchun imtiyozli kreditlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, bunda kredit foiz stavkasining belgilangan asosiy stavkadan yuqori qismini davlat tomonidan qoplab berish va davlat kafilligi mexanizmlarini keng qo'llash;

– an'anaviy bank kreditlari bilan bir qatorda, FinTech platformalari orqali muqobil moliyalashtirish manbalarini jalb etish;

– kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik uchun subsidiyalar ajratishda "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga, resurslarni tejaydigan hamda yuqori texnologiyalarga asoslangan loyihalarga ustuvorlik berish;

– kichik biznes loyihalarini moliyalashtirishga xorijiy investitsiyalar, xalqaro kredit resurslari va grant mablag'larini keng jalb etish;

– biznes-rejalar va biznes loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslarini to'g'ri ishlab chiqish hamda biznesni oqilona yuritish uchun tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirishga alohida e'tibor qaratish.

5. Raqamlashtirish va marketing strategiyalaridan samarali foydalanish:

– mahsulotlar va xizmatlarni sotishda elektron savdo platformalari hamda ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish orqali bozor qamrovini kengaytirish;

– maqsadli reklama vositalari va mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmat ko'rsatish orqali mijozlar bazasini kengaytirish;

– raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, brending va zamonaviy qadoqlash usullarini joriy etish orqali ichki va tashqi bozor segmentlariga chiqish;

– biznes forumlari, ko'rgazmalar, yarmarkalar, simpoziumlar va konferensiyalarda faol ishtirok etish orqali mahsulotlar hamda korxona faoliyatini keng targ'ib qilish.

Xulosa qilib aytganda, kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish, mahallalarning ichki salohiyatidan oqilona foydalanish, infratuzilmani rivojlantirish, tadbirkorlarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda ichki va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini yaxshilash bilan uzviy bog'liq. Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi kichik biznesning barqaror rivojlanishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi va aholi daromadlarining oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi, 2025-yil 20-avgust [Elektron resurs]. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8397> (murojaat sanasi: 05.08.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Rasmiy statistika ma'lumotlari [Elektron resurs]. – URL: <https://siat.stat.uz/reports-filed> (murojaat sanasi: 05.08.2026).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi



- bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050769> (murojaat sanasi: 05.08.2026).
4. Salamov I., Qudratov T., Qudratova I. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: ma'ruzalar kursi. – Samarqand, 2015. – B. 7–8.
 5. McConnell C.R., Brue S.L., Flynn S.M. Microeconomics: Principles, Problems, and Policies. – 19th ed. – New York: McGraw-Hill/Irwin, 2012. – P. 128.
 6. Буров В.Ю. Основы предпринимательства: учебное пособие: в 3 ч. Ч. 3: Практика малого бизнеса. – Чита: Забайкальский государственный университет, 2018. – 283 с. – С. 84.
 7. Qosimova D.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: darslik. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023. – B. 14.
 8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari soni (yillik) [Elektron resurs]. – URL: https://siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_262.pdf (murojaat sanasi: 05.08.2026).
 9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (yillik) [Elektron resurs]. – URL: https://siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_261.pdf (murojaat sanasi: 05.08.2026).
 10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Faoliyat ko'rsatmayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (yillik) [Elektron resurs]. – URL: https://siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_3372.pdf (murojaat sanasi: 05.08.2026).
 11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari: 2020–2024-yillarga oid press-revizlar [Elektron resurs]. – URL: <https://stat.uz/uz/default/press-revizlar/> (murojaat sanasi: 05.08.2026).
 12. Эшов М.П. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikнинг ривожланиши: омиллар, натижалар ва истиқболлар: монография. – Тошкент: Маънавият, 2017. – 80 б.
 13. Abdullayev A.A. Mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari // Moliya, pul va kredit. – 2026. – Jild 4, № 2. – B. 301–308. – DOI: 10.5281/zenodo.20187829.
 14. Gafurov U. Mahallalarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning amaliy jihatlari // Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar. – 2025. – Jild 2, № 6. – B. 794–799. – DOI: 10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss6-pp794-799.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>